

PUDRAT SHARTNOMASI № 1/3

2022 yil "28" 11

Shaxrixon tuman

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" Shaxrixon tuman tibbiyot birlashmasi nomidan Nizomboshlig'i SH.O.Aminjonov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "Sharqda Faol Kuruvchi" MCHJ raxbari D.Zulunov ikki tomondan ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: Shaxrixon TTB binosini joriy ta'mirlash, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

- 2.1. Shartnoma bahosi **419 000 000** so'mni tashkil etadi.
- 2.2. Shartnoma bahosi o'z ichiga quyidagilarni oladi:
- 2.3. Shartnomaning 2.1- bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3- bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO'LOV SHARTLARI

- 3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: oldindan 30 % (foiz) yani **125 700 000** so'm (Bir yuz yigirma besh million etti yuz ming) so'm Pudratchining xisob raqami -ga o'tkazib beradi.
- 3.2. "Buyurtmachi" qolgan 70% yani **293 300 000** so'm (Ikki yuz to'qson uch million uch yuz ming) so'm mablag'ni Pudratchi ishni yakunlab bo'lgandan so'ng 10 bank ish kunida "Pudratchi"ning hisob raqamiga o'tkazib berish majburiyatini oladi.
- 3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, 10 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

- 4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).
- 4.2. Shartnomaning amal qilish muddati: 2022 yil 31 dekabr.

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish; loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish; o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish;

ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish; qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash; qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash; qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolangankeyin 10 kunlik muddatda qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish; shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida

nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektни qabul qilib olish.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz 2 oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi:
"Sharqda Faol Kuruvchi" MCHJ
Manzil: Shaxrixon tuman
Hisob-kitob raqami
2020800305052964001
INN:306583655 MFO:00074
TIF Milliy bank Shaxrixon bol.
Raxbar: D.Zulunov



Buyurtmachi:
"Shaxrixon TTB"
Manzil: Shaxrixon tuman
Hisob-kitob raqami
23402000300100001010
INN:200292581 MFO:00014
Markaziy bank Toshkent sh. XKKM
Raxbar: Sh.Aminjonov



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

XH4567760731

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Shahrixon tumani tibbiyot birlashmasi rahbari Sh.Aminjanov va "Sharqda faol quruvchi" MChJ rahbari D.Zulunov o'rtasidagi Shahrixon tumani tibbiyot birlashmasi Travmatologiya bo'limini joriy ta'mirlash ishlarini bajarish haqid pudrat shartnomasi.**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shahrixon tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 24.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Shahrixon tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



R.R.MIRZAYEV

28.11.2022

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 192048 на приобретение * Андижон вилояти Шахрихон тиббиёт бирлашмаси "Травматология булимини" жорий таъмирлаш.

Способ проведения электронный

Дата 24.11.2022

Время рассмотрения 24.11.2022 10:19

Закупочная комиссия Шахрихон туман Тиббиёт бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	TOSHTEMIROV XOLMUXAMMAD ISROILJONOVICH	КУК раиси	Шахрихон ТТБ
Секретарь комиссии	ERGASHEV MURODJON ADXAMJONOVICH	Хисобчи	Шахрихон ТТБ
Член комиссии	IBAYDULLAYEV RUSLAN DONIYOROVICH	Кадрлар булими бошлиги	Шахрихон ТТБ
Член комиссии	XAKIMOV KOSIMJON ZAKIROVICH	Бош хисобчи	Шахрихон туман тиббиёт бирлашмаси
Член комиссии	REJAVALIYEV SHERZOD NUMANJONOVICH	Иктисодий ишлар бошлик уринбосари	Шахрихон ТТБ
Член комиссии	AMINJANOV SHUXRATJAN ODILOVICH	Рахбар	Шахрихон ТТБ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 24.11.2022 года № лота 192048.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Андижон вилояти Шахрихон тиббиёт бирлашмаси "Травматология булимини" жорий таъмирлаш.
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	419 023 545.00
Стартовая сумма	419 023 545.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Опыт работы

Тип: Текстовое значение

Описание: Список аналогичных работ в данной сфере (наименования организации, номер и дата регистрации договора) за прошедший год

Обязательность: Критично

			(UZS)				
MCHJ BEST PARTNER 0001	419 023 545.00	419 023 000.00 UZS	419 023 000.00	00.00	419 023 000.00	23.11.2022 14:00:24	9.99945
ООО SHARQDA FAOL QURUVCHI	419 023 545.00	419 000 000.00 UZS	419 000 000.00	00.00	419 000 000.00	22.11.2022 15:06:09	10

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
MCHJ BEST PARTNER 0001	29.9997	9.99945	39.99915
ООО SHARQDA FAOL QURUVCHI	90	10	100

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 192048 от 24.11.2022 года на приобретение * Андижон вилояти Шахрихон тиббиёт бирлашмаси "Травматология булимини" жорий таъмирлаш. определила победителем:

ООО SHARQDA FAOL QURUVCHI
306306752

и резервный исполнитель: MCHJ BEST PARTNER 0001 (308765989)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	TOSHTEMIROV XOLMUXAMMAD ISROILJONOVICH	Согласен	
Член комиссии	XAKIMOV KOSIMJON ZAKIROVICH	Согласен	
Член комиссии	REJAVALIYEV SHERZOD NUMANJONOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

